

## **XXI ASR TILSHUNOSLIGI VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR**

**“So‘z” va “nom” leksemalarining o‘zaro semantik-stistik munosabatlari**

**f.f.n., prof. A.Jumaniyazov**

**PhD. D.Jumaniyazova**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “so‘z” va “nom”ning o‘xhash va farqli tomonlari grammatik, leksik-semantik jihatdan tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** so‘z, nom, etimologiya, ma’no, so‘z turkumlari, kelishiklar, ta’rif, fikr-mulohaza.

Mazkur mavzu borasida dunyo tilshunoslaring so‘nggi (va to‘g‘ri) xulosalari shuki, so‘z— narsa va hodisaning nomidir. Nomesa –so‘z yordamida muayyan narsa va hodisaning atalishi, ko‘rsatilishi, ular haqida ma’lumot berilishi yoki zaruriy hollarda ko‘chma ma’no olishidir.

Biroq insoniyatning o‘zaro nutqiy muloqoti – tilning asosi hisoblanmish bu ikki fenomenal birliklar turli zamon va makonlarda, turli tilshunoslardan turlicha ta’riflanib kelinganini ham ta’kidlamoq lozim. Ta’rifu tasniflarga chuqurroq va tanqidiroq yondoshiladigan bo‘linsa, ularda ko‘pincha bir yoqli(tomon)lik, asosan mantiqiy qusurlar uchraydi. E’tiborlisi shundaki, so‘z va nomning tabiatini va mohiyatini anglashda qilingan fikr va xulosalarning bariga tilshunoslarning aksariyati xayrixoh qaraydi, o‘zaro keskin va qaramaqarshi fikrlar deyarli uchramaydi. So‘z va nomning ilohiy xilqat ekanligi, ularning tom ma’nosini bilan tushunishda bani odamning ojizligi, masalaning murakkabligi bois, ta’riflarning “fiktiv” qilinganligiga e’tiroz deyarli yo‘q va hozircha “barchaga” ma’qul.

Quyida mazkur masala mohiyati bobida dunyo tilshunoslari tomonidan shu paytgacha aytilgan fikrlarni tan olgan holda, ayrim bahsli mulohazalar bildiriladi.

Avvalo so‘zning tabiatini va mohiyati haqida to‘xtalamiz. Ma’lumki, “so‘z” bilan dunyo yaratilgan, “nom” bilan esa undagi narsa va hodisalar atalgan, farqlangan. Zero, his qilish hali ilm emas, farqlash mushohadasi ilmdir.

Insoniyat tarixi o‘rganilishida, uning yaratilish asosi bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlarda, Alloh Taolo insonni o‘z qo‘li bilan loydan yasagani, puflab jon kiritgani ta’kidlaniladi. Shunda u “dunyo” tarixidagi ilk so‘z “kun! (bo‘l!)”ni aytdi, bas, u (Kun fa ya kun!) bo‘ldi. <sup>16</sup>Shu bois, dunyo (Odam)ning yaralishi “so‘z” bilan boshlangan deb rivoyat qilinadi. Mazkur rivoyat nasroniylikning muqaddas kitobi “Injil”da ham (Werde!) ta’kidlaniladi.<sup>17</sup> Tarixiy ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, “so‘z” dunyoning paydo bo‘lishida vosita (qurol) bo‘lganligi ta’kidlanilgan, lekin “so‘z”ning o‘zi nima (qanaqa hikmat, qanaqa xilqat) ekanligi haqida aytilmagan, muloqot vositasi sifatida qo‘llaniladi. Aslida “so‘z” so‘zining ham ismi jismiga monand ma’nosи bor, u ham yuqorida ta’kidlaganimizdek, “nom”!

Etimologik jihatdan “so‘z”ning, yoxud “so‘z” so‘zining o‘zi qanaqa ma’no anglatishiga to‘xtaladigan bo‘lsak, u german tillarida (ingliz, nemis) “quvonch qichqirig‘i, xursandchilik ifodasi, tantanavor aytilgan tovush” ma’nolariga ega. Demak, bu xalqlar narsa va hodisalarni atovchi so‘zlar kashf qilishganidan quvonishgan. Uning milliy tilimizda yaralishi va anglatadigan ma’nolari bobida shuni aytish mumkinki, “so‘z” so‘zi o‘zbek tiliga fors tilidan kirib kelgan bo‘lib, uning asl tilda “azoblanish, og‘riq, ninaning sanchilishi” kabi ma’nolari bor. Mazkur ma’nolar (fikr)ni quvvatlash uchun tilimizdagи *so‘zak* (*tanosil a’zolarning sanchiq og‘riqli kasali*), *so‘zan* (etikdo‘zlarning ninasi), *so‘zan* (*tikanakli buta o‘simplik— ushslash uchun tikansiz joyi bo‘lmaydigan, ushlaganda esa doimo tikani kiradigan sahro daraxti*)ni keltirish mumkin. Tilimizda yana *so‘zana, shoxi so‘zana* kabi til birliklari borki, ulardan igna bilan tikilgan, kashtasi qayilgan, naqshinkor gulchoyshab yoki ko‘rpa(cha)lar ma’nosida muloqotda foydalilanadi. Mazkurlarni tayyorlash ishlarida barmoqqa igna sanchilish ehtimoli doimo mavjudligi bois, ularning yuqoridagicha nomlanishlari yaratilgan bo‘lishi ajab emas. *So‘zana* so‘zining tasavvurida esa, o‘tkir did bilan to‘qilgan milliy naqshlari sodda bezaklar bilan

---

<sup>16</sup> Куръони Карим. Оли Имрон сураси, 59 оят. 2021, Тошкент. Мунир нашриёти. – Б. 57.

<sup>17</sup>Bibel. Stuttgart. Evangelische Haupt-Bibelgesellschaft Altenburg. 1977. – S.8.

ziynatlangan choyshablar, yoping‘ichlar anglashiladi. Demak, aytish mumkinki, g‘arbda “so‘z” kashf qilinishidan quvonishgan bo‘lishsa, sharqda esa (turkiy xalqlar) ixtiyor-beixtiyor “so‘z” aytishda ehtiyot bo‘lishgan, suhbatdosh qalbini og‘ritishdan, yuragiga nina sanchishdan o‘zlarini tortib ushslashgan, “avval o‘yla, keyin so‘yla (so‘zla)” qabilida ish tutishgan. Alloh Taolo bandalariga karomat qilgan ism (ta’limi asmo)larga hurmat bilan qarashgan, ularni qalb qo‘rida evirib aytishgan.

Fors tilining o‘zida esa “so‘z” arab lug‘at tarkibiga monand *kalema*, *voje*, *lug‘a* timlo-talaffuziga ega til birliklari bilan izohlanilgan. U *tarkibi kalema* (so‘z tarkibi), *kalematero yot gereftan* (so‘zlarni o‘rganmoq, yod olmoq), *kalemaro bekor bardan* (so‘zdan foydalanmoq)<sup>18</sup>, nutqiy so‘z manosida “*kalom*, *so‘xan*” aytilish va yozilish shaklida *kalome nutqeaxtatome* – oxirgi so‘z, *rishtaye kalomro bekasedodan* – kimgadir so‘z bermoq<sup>19</sup> kabi iboralarda fors tili so‘zlashuv nutqida ko‘p qo‘llaniladi. “So‘z”ning yuqorida nomlangan ma’nodosh (kalema, voje, lug‘at, kalom, so‘xan) muqobillarining fors tilida qo‘llanilish farqlari bor. “Kalema” til birligi, “voje” o‘rganilishi kerak bo‘lgan yangi (chet) so‘z, “lug‘at” so‘zlik ma’nosida, “kalom” nutq birligi, “so‘xan” notiq so‘zi kabi qo‘sishimcha ma’nolar kashf etishgan. Bu til birliklari milliy tilimizda ham “kalomulloh”, “izohli lug‘at”, “avval salom, keyin kalom”, “suxandon” kabi til birliklari sifatida keng qo‘llaniladi. “Voje” (ko‘plik shakli “vojeho”) so‘zining esa tilimizda unga mengzash “vajohat” so‘zi mavjud bo‘lib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” daetimologik jihatdan uning arab tiliga tegishli ekanligi qayd qilinib, bu so‘z quyidagicha izohlaniladi: 1) Odamning ko‘zga tashlanuvchi gavda bichimi, qiyofasi, savlati. 2) Ruhiy holat, kayfiyatning ko‘zga tashlanuvchi ifodasi, ko‘rinishi; avzo. Nutqda kishi og‘zidan chiqqan so‘zlearning yaxshi-yomonligi inson ruhiga bog‘liq holda uning yuzi (tashqi qiyofasi), “vajohatida aks etishi” tilimizda *vajohatli*, *vajohati buzuq*, *vajohati yomon*, *vajohatini ko‘rmoq*, *vajohatidan qor yog‘ilar* edi iboralarining

<sup>18</sup>Г.А.Восканян. Русско-персидский словарь. Москва. Русский язык. 1986. – С.640.

<sup>19</sup>С.Д.Клевцова. Русско-персидский словарь.АнташоратХонзоде. Ислом нашри.1967. – С.638

yaratilishiga olib kelgan. Bunday misollar so‘zning nafaqat inson ruhiga, balki uning avzoyiga ham yaqqol ta’sir qilishi tabiiy hodisa ekanligi uchun yorqin dalildir.

Arabchada “so‘z” *kalima* deb aytiladi, izohli lug‘at va qomuslarimizda uning yana *nutq*, *gap-so‘z*; *so‘zlash*, *gapisirish* deb sharhlaniladi. Ruslarda esa “so‘z”ning *слово* aytilish, imlo-talaffuzi bo‘lib, uning *слава* (shon-shuhrat) til birligi bilan yaqin aloqasi bor, zero, so‘z yoki so‘zlashish insonga shon-shuhrat keltirganligi isbot talab qilmaydigan hodisadir.

Endi “so‘z”ning o‘zbek tishunosligida ta’riflanishiga kelsak, u turlicha *asosiy til birligi*, *til va nutqning eng muhim elementlaridan biri*, *tilning eng kichik asosiy birligi*<sup>20</sup> qabilida sodda ta’riflar bilan yoki *o‘z tovush qobig‘iga ega bo‘lgan,narsa-hodisalar, jarayonlar, shaxslar, belgi va miqdorlarni, xususiyatlarni, harakat va holatni, aloqa va munosabatlarni nomlash uchun xizmat qiladigan, mustaqil lug‘aviy ma’noga ega bo‘lgan, shuningdek, turli grammatik ma’no va vazifalarda qo‘llanadigan eng muhim til birligi; gapning qurilish materiali*<sup>21</sup> kabi murakkab ravishda izohlaniladi. Izohli lug‘atimiz “so‘z” mohiyatidan tashqari yana ayrim – *biror ma’no turiga, uslubga oid shunday birlik* (*tilda, nutqda ifoda vositasi sifatida*); *so‘zlashuvda, gapda, nutqda shunday vositalardan foydalanish qobilyati, san’ati; maqol, matal, ibora; gap, gap-so‘z, nutq; mish-mish gap, ovoza, ig‘vo; o‘git, pand-nasihat, ta’lim-tarbiya, iltimos yoki buyruq mazmunidagi gap; va’da, lafz, azm-qaror* – sharhlar keltiradiki, ularning “so‘z” ta’rifiga bevosita aloqasi yo‘q, ular nisbiy yoki ko‘chma ma’nolarga ega. Zero, qobilyat, san’at, maqol, matal, ibora, gap, nutq, mish-mish, ovoza, ig‘vo, o‘git, pand-nasixat, ta’lim-tarbiya, iltimos, buyruq, va’da, lafzlarning muloqotdagi tabiatan ifodasi “so‘z”lar bilan qayd qilinsa-da, mohiyatan (ularning nima uchun kerakligi, muloqotdagi vazifasi) butunlay boshqa – ular kishilik jamiyatining ijtimoiy turmushida kechayotgan

<sup>20</sup>Ўзбек тили лексикологияси. 1981. Тошкент. Фан.- Б.6.

<sup>21</sup>Ўзбек тилининг изоҳли луғати. O‘zbekiston nashriyoti. Тошкент.2020. –Б.608

o‘zaro munosabatlar ko‘rinishining atalishi(nomi)dir, ularni “so‘z” ta’rifiga umuman aloqasi yo‘q.

Endi dunyo tilshunoslari tomonidan “so‘z” ta’rifi haqida bildirilgan fikr-mulohazalarga to‘xtaladigan bo‘lsak, ular “asosiy til birligi”, “til va nutqning eng muhim elementlaridan biri”, “tilning eng kichik asosiy birligi”<sup>22</sup> kabi umumiyligi, “so‘z tilning eng asosiy va markaziy birligi”<sup>23</sup> kabi aksiomaik, “so‘z tilning eng kichik, mustaqil qo‘llanuvchi tovush va ma’nodan iborat bo‘lgan til birligi”<sup>24</sup> kabi konkret, “so‘zdan kuchliroq narsa yo‘q (Menandr)”, “so‘z inson qudratining qo‘mondoni (V.V.Mayakovskiy)”, “so‘z hayotning buyuk quroli (V.G.Korolenko)”, “So‘zdurki, nishon berur o‘likka jondin, so‘zdurki, berur jonga xabar jonondin, insonni so‘z ayladi judo hayvondin, bilkim, guhari sharifroq, yo‘q ondin (A.Navoiy)” kabi falsafiy va shoirona ta’riflar berilgan. Qayd qilingan ta’rif va fikr-mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, barchasida “so‘z”ning muayyan ahamiyatlari ta’kidlanilgan, lekin asl mohiyati (uning narsa va hodisaning nomi ekanligi) aytilmagan.

Nomning tabiativ amohiyati haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, mazkur so‘z sanskritcha “नामः”(nama) so‘zidan olingan bo‘lib, uni bizning tilimizga arab tilidan kirib kelgan “اسم” (ism) so‘zning muqobili sifatida tushuniladi. Adabiy tilimizda uning “ot”, shevalarda “od”(Xorazm) kabi variantdoshlik shakllari bor. “Nom” so‘zining grekchada “onoma”, lotinchada “nomen”, nemischada “der Name”, inglizchada “name”, italyancha “nome”, turkmanchada “ady”, qozoqchada “аты”, forschada “نام” (nom) imlo va talaffuzga ega shakllari bor. Eng qizig‘i shu yerdaki, eski hind tilida “nom” so‘zining kelib chiqishi sanskritchadagi “sabda” imlo va talaffuz ko‘rinishidagi ko‘p ma’noli leksik birlikka taqalib, uning “tovush, ovoz, chaqiriq, so‘z, ism, ot” <sup>25</sup>ma’nolari shrahlaniladi. Ko‘rinib turibdiki, “nom”ning ma’nolari ham “so‘z” ma’nolari (*tovush, ovoz, chaqiriq, so‘z, ism, ot, quvonch hayqirig‘i, shodlik qiyqirig‘i*,

<sup>22</sup>Ўзбек тили лексикологияси. Тошкент. Фан.1981. –Б.6.

<sup>23</sup>Ўзбек тили лексикологияси. Тошкент. Фан.1981. –Б.92.

<sup>24</sup>Susanna Arakeljan.Lexikologie des Deutschen. Jerewan.2017.-S.16.

<sup>25</sup>Klaus Mylius. Sanskrit-Deutsch/Deutsch-Sanskrit. — Wiesbaden: Harrassowitz Verlag, 2005. – S.474.

*og ‘riq chinqirig ‘i)* kabi o‘xhash etimologiyaga ega. Bu esa “so‘z” va “nom” til birliklarining uzviy bog‘liqligi, birini ikkinchisiz ifodalay olmaslik, mohiyatini anglashda ularning hamjihatiliginini taqozo qiladi. Shunga asosan xulosa qilish mumkinki, muloqot – biror narsa-hodisani aytish yoki shu borada fikr bildirish, ularni nomlash bilan kechadi. Odatda esa muloqot “so‘zlar” vositasi bilan amalga oshadi, deb shu paytgacha tushunib kelingan. Bunda “so‘z” narsa va hodisani nomlash uchun vositachilik qilayotganiga e’tibor berib o‘tirilmaydi. Darvoqe, Alloh Taolo insonga uni yaratgandan so‘ng so‘z yoki til emas, ta’limi asmo (ismlar haqida ta’lim) karomat qilgan, narsalarni nomlashni o‘rgatgan, qalbiga solgan. Kezi kelganda shuni ham aytish mumkinki, har qanday til grammatika(so‘z shaklining o‘zgarishi)sining morfologiya (so‘z qurilishi) qismida, so‘zlar turkumlarga bo‘lib o‘rganiladi. Turkumlar tillarga qarab son jihatdan farqlanadi: o‘zbek tilida 12, nemis tilida 11, fransuz tilida 10, ingliz tilida 15. Farqlanish yordamchi so‘z turkumlariga xos, asosiy so‘z turkumlari esa hammasida 6 (ot, sifat, fe’l, ravish, son, olmosh) ta. Bizning fikrimizcha, yuqorida nomlangan barcha turkumlar nafaqat ot, balki qolganlari ham nomlash xususiyatiga ega, ya’ni ot narsa va hodisani nomlasa, sifat uning belgisini nomlaydi (*ish – yaxshi ish*), fe’l narsa va hodisalarning harakat va holatini nomlasa, ravish harakat va hodisaning belgisini nomlaydi (*ishlamoq – yaxshi ishlamoq*), son esa narsa va hodisaning sonini nomlaydi. Olmosh so‘z turkumi esa narsa va hodisalar o‘rniga almashib kelib, ularning nomini almashtirish xususiyatiga ega. Qizig‘i shundaki, narsa va hodisa bo‘lmasa, ularning nomi (ot so‘z turkumi) ham bo‘lmaydi. Narsa va hodisani nomi (oti) bo‘lmasa, ularning holat va harakatini bildiruvchi fe’l, belgisini bildiruvchi sifat, harakat va holat belgisini bildiruvchi ravish, narsa va hodisaning adadini bildiruvchi son va barcha narsa va hodisalarni yoxud ularni nomlovchi barcha so‘z turkumlarining o‘rniga almashtirib qo‘llanuvchi nom – olmosh ham bo‘lmaydi. Bu mohiyatan inkor qilib bo‘lmaydigan mutloq haqiqat, tabiatan esa real voqelikdir.

Grammatikaning morfologiya qismida nomlar ot so‘z turkumi mavzusiga bog‘lanib, ular ot kategoriyalaring biri sifatida o‘rganiladi. Ular bir turdag'i predmetlarning birining nomini yoki shu turdag'i predmetlarning umumiy nomini bildirishiga ko‘ra atoqli (kishi, shaxs, tashkilot, geografik, sayyoralar, tarixiy hodisalar, hayvonlarning maxsus nomlari) va turdosh (bir jinsdagi predmetlar) bo‘ladi. Otlar ifodalagan tushunchaning xarakteriga ko‘ra konkret (aniq) va abstrakt (mavhum) bo‘ladi. Otlar birlik (narsaning o‘zi) va ko‘plik (narsalar jami, to‘dasi)ni anglatishiga ko‘ra yakka ot va to‘da otlarga bo‘linadi.<sup>26</sup> Mazkur darslikda otlar “ot” deb nomlanilgan. Ikkinchi bir darslik<sup>27</sup> da esa otlar “nom” deb atalgan. Ular quyidagi sxema bilan aniqroq ko‘rsatilgan:

<i>Shaxs nomlari</i>		<i>Hayvonot nomlari</i>		<i>Narsa-buyum nomlari</i>		<i>O‘simlik nomlari</i>	
<i>shaxs va kasb</i>	<i>qarindoshlik</i>	<i>uy hayvonlari</i>	<i>yovvoyi hayvonlar</i>	<i>quroslasлаha</i>	<i>kiyikkechak</i>	<i>o‘simliklar</i>	<i>mevalar</i>

Yuqoridagi qiyoslardan ko‘rinib turibdiki, “ot” va “nom” bir-biriga muqobil va variantdor leksik birliklar sifatida qo‘llanilib, vazifalari nuqtayi nazaridan ayni tushunilgan. Bu holat dunyoning boshqa tillarida ham kuzatiladi, jumladan, nemis tilida otlar, avvalo, konkret va abstrakt nomlarga bo‘linadi. O‘z navbatida konkret nomlar narsa (Stoffname), tur (Gattungsname), atoqli (Eigenname), jamlovchi (Sammelname) nomlar sifatida o‘rganiladi. O‘zbek tilidan farqi shuki, nemis tilida hodisa nomlari (Vorgangsname) degan maxsus atama yo‘q, milliy tilimizda esa “hodisa” predmet (inson ko‘z oldida turgan narsa) bilan parallel (predmet va hodisa) tarzida talqin qilinadi. Nemis tiliga xos xususiyatlarning yana bir e’tiborli tomoni shundaki, ularda atoqli otlarning 30 ga yaqin turi bor. Jumladan, Schandname (*sharmandalik nomi*), Kosename (*erkalash nomi*), Schimpfname (*so‘kish orgali ifodalananadigan nom*), Taufname (*cho‘qintirilgan nom*), Rufname (*chaqirilganda aytildigan nom*), Beiname

<sup>26</sup>Ишабдураҳмонов., М.Аскарова., А.Хожиев., И.Расулов., Х.Дониёров. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, Ўқитувчи. 1989.-S.215-216.

<sup>27</sup>Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, Ilm ziyo, 2015.-B.270.

(*yonma-yon ishlatiluvchi nom*), Deckname (*yashirin nom*), Neckname (*aytib jig‘iga tegiladigan nom*), Schmeichelname (*laganbardorlik nomi*), Eckelname (*ko‘ngilni aynituvchi nom*), Doppelname (*qo‘shaloq nom*), Mädchenname (*turmushga chiqishdan oldingi nomi*), Familienname (*nasab nomi*), Personename (*shaxs nomi*), Ehrenname (*faxriy nom*), Unname (*nomi yo‘q, Otsiz*), Übername (*taqalgan nom*), Männername (*erkakcha nom*), Frauename (*ayolcha nom*), Vatername (*otaning nomi*), Vorname (*nom, ism*), Spottname (*masxaralovchi nom*), Schriftstellername (*taxallus – yozuvchi, shoir – nomi*), Künstlername (*taxallus – san’atkor – nomi*), Spitzname (*yarim chin – yarim hazil beriladigan nom*), Zuname (*qo‘shib aytiladigan nom*) kabilar. „Ot“ va „nom“ leksik birliklari milliy tilimizda „ism“ so‘zi bilan o‘rindosh (Männername - *erkakcha nom emas, erkaklar ismi deb*; Vatername - *otaning nomi, otaning ismi*) ravishda, muqobil sifatida qo‘llanishi mumkin. Biroq bu har doim emas, masalan, Ehrenname - *faxriy nom, faxriy ism emas*; Schandname - *sharmandalik nomi, sharmandalik ismi emas*. Insonlar ijobiyl yoki salbiy ma’noda atalishlari zarur bo‘lgan hollarda odatda “nom” qo‘shma so‘z yoki birikmaga komponent bo‘lib keladi. Yoxud “badnom, xushnom” lug‘at tarkibimizda bor, “badism, xushima” esa muloqotda deyarli uchramaydi. Bunday holatlar muloqotda “so‘z” emas, “nom” rolining kattaroq ekanligini yana bir karra ta’kidlaydi.

Narsa va hodislarni “nom”lash xususiyati nafaqat ot so‘z turkumlariga xos, balki barcha so‘z turkumlari orqali ham yuzaga kelishi mumkin ekanligini yaqqol ko‘rsatuvchi tillardan biri rus tilidir. Rus tilida nom “имя” deyiladi, ot so‘z turkumiga – *имя существительное*, sifat so‘z turkumiga – *имя прилагательное*, son so‘z turkumiga – *имя числительное* va olmosh so‘z turkumiga – *местоимение* (nom o‘rniga qo‘llaniladigan) deyiladi. Fe’l so‘z turkumini ham “nom”lash mumkinligini milliy tilimiz isbotlaydi, tilimizda fe’lning bir ko‘rinishi(o‘qish, kurash, biluv) ga harakat nomi deyiladi. Demak, shu fikr-mulohazani barcha (asosiy, yordamchi) so‘zturkumlariga nisbatan tadbiq qilish mumkin. Yoxud “ravish” holat yoki harakat belgisining nomi,

bog‘lovchi – so‘zlarni sintaktik-semantik jihatdan bog‘lash xususiyatiga ega so‘z turkumining nomi, his-hayajon so‘zlar – tuyg‘ular nomi sifatida tushunilsa, yuqorida bu mavzu bo‘yicha bildirilgan fikr-mulohazaga e’tirozga o‘rin qolmaydi. Mazkur fikrni davom qildirgan holda ta’kidlash mumkinki, ot so‘z turkumi kategoriyasiga xos bo‘lgan kelishiklar tillariga qarab tur (ingliz tili 2, nemis tili 4, rus tili 6, o‘zbek tili 6, eski hind tili 8)li xil bo‘lsa-da, bosh kelishikka – nominativ (nomlovchi kelishik) deyiladi. Faqat bizlar uni bosh kelishik deb nomlaymiz, lekin narsa va hodisalarni nomlab kelishini ta’kidlaymiz. Bilamizki, narsa va hodisalarni nomlashda, ular ot (yoki otlashgan) so‘z turkumi orqali ifodalanadi, ularga nom (ot, ism) berishdadunyodagi hech bir xalq va uning tili ko‘makchiga – ko‘machki so‘z turkumiga muhtoj bo‘lmagan. Lekin milliy tilimizda bosh kelishikning ham ko‘makchi (tomon, uchun)lari bor, deb o‘rgatiladi. Bunda bosh (nominativ – nomlovchi) kelishikning hech bir turlanish qo‘sishchalariga, ko‘makchi yoki yuklamalarga muhtoj emasligi e’tiborga olinmaydi, ko‘makchilarning kelishiklarning boshqaruvida belgisiz holatlari (menga tomon, sening uchun) inobatdan tashqarida qoladi.

Shu ma’noda asosiy so‘z turkumi qilib ot – narsa va hodisalarning nomi olinishi kerak, boshqalar hammasi (qolgan 5 ta asosiy so‘z turkumi va yordamchi so‘z turkumlarning barchasi) yordamchi so‘z turkumlari deb nomlangani ma’qul. Ot so‘z turkumining mutloqligiga nemis tilini misol qilib olish mumkin, ular ot (va otlashgan) so‘z turkumiga xos barcha narsa va hodisalarning nomini bosh harf bilan yozishadi.

Leksikologik (nom ma’nosи) va stilistik (nomning qo‘llanilish uslubi) jihatdan “nom” (ot, ism) ma’nolari ko‘chishi mumkin. “Nom”ning leksik ma’nolari haqida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” quyidagi sharhlarni keltiradi: 1) Shaxs yoki narsa-predmetlarga qo‘yilgan ot; ism. *Keksayib qolgan eshonning xotirasi ancha pasayganidan ko‘p vaqt o‘z o‘g‘illarining nomlarini ham xotinidan so‘rab olar edi*. P.Tursun, O‘qituvchi. 2) biror sohaga, guruhga

oidlikni bildiruvchi atama. *Muallim degan nomimiz bor.* Z.Said, N.Safarov, Tarix tilga kirdi. 3) Faoliyatning biror sohasida erishgan yutuq, malaka darajasini ko‘rsatish uchun rasmiy yo‘l bilan beriladigan unvon. *Xizmat ko‘rsatgan artist degan nom.*<sup>4</sup> 4. Ko‘pchilik orasida ma’lum-mashhurlik; dong, dovrug‘, shuhrat. *Nom chiqargan jamoa xo‘jaligi.* Izohlardan ko‘rinib turibdiki, “nom” so‘zining ma’nosini birinchi (ot, ism) holatda bevosita o‘z ma’nosida, keyingi (atama, unvon, dong, dovrug‘, shuhrat) holatlarda esa bilvosita ko‘chma ma’nolarda qo‘llanilayotganligi qayd qilingan. Milliy tilshunosligimizda bunday holatlar odatda so‘z ma’nolarining ko‘chishi deb o‘rganilib kelindi. So‘z ma’nosining ko‘chish usuli 4 xil bo‘ladi: metafora, metonimiya, sinekdoxa, funksional ko‘chish.<sup>28</sup> Aslida bir so‘zning ma’nosini ikkinchi so‘z ma’nosiga ko‘chmaydi, bir narsaning nomi bilan ikkinchi bir narsa nomlanadi. O‘zbek tilshunosligida bu hodisalar ko‘chimlar deb ham ataladi. Bundan tashqari stilistik jihatdan ayrim istiora, ramz, majoz kabi nomlanishlar ham borki, ularga ko‘chimning muqobili sifatida qaraladi. Metafora va metonimiya terminlari esa yuqorida nomlangan muqobillarga chet tillardan kirib kelgan variantdoshlar sifatida qaraladi. Xalqaro muloqotda umumtushunarli bo‘lishi va ularning aynan stilistika sohasiga oidligini ta’kidlash uchun uslubiy tahvilning (stilistik analiz) terminlari sifatida umumqo‘llaniladi. Bunday turli xil nomlanishlar beziz emas, nainki ularning har birining ma’nolari bir-biridan farqlanadi, muloqotda aynan bir atama yoki terminning takrorlanishidan qochiladi. Hatto ayrim holatlarda ularning ma’no farqlariga bilar-bilmas munosabatda bo‘lish holatlari ham uchraydi. Bizning fikrimizcha, muloqotda “nom” (so‘z)larning ma’no ko‘chishida xalqaro qabul qilingan metafora va metonimiya terminlariga tayanib ish tutgan ma’qul. Zero, ularga tilimizda muqobil qidirib *ko‘chim, istiora, ramz, majoz, timsol* kabi atamalarga murojaat qilinishinarsa va hodisani narsa va hodisadek nomlaolmay qoladi, ularning ismi jismiga monandligi yo‘qoladi, bir yoqlamalik (ma’noning bir tomoniga asoslanib muayyan xulosa chiqarish) vujudga keladi. Shu asnoda quyida yuqoridagi atamalarni kelib chiqishi va

<sup>28</sup> А.Содиков., А.Абдуазизов., М.Ирискулов. Тилшуносликка кириш. – Тошкент, Ўқитувчи. 1981. – Б.101

anglatadigan ma'nolarini tahlil qilishga harakat qilamiz. "Ko'chim" izohli lug'ati(2020-yil)mizda asosan "*badiiy ifodalilikni oshirish uchun ko'chma ma'noda qo'llangan nutq birligi; kinoya, ramz bilan qo'llangan so'z, ibora*"<sup>29</sup>deb sharhlaniladi. Mazkur lug'atning 1981-yilgi nashrida esa qayd qilinmagan. Bu atamaning kelib chiqishiga, bizningcha, ruscha "перенос (ко' chirish)ноеслово"асос bo'lgan bo'lishi mumkin.Yoxud "переносить" *ko'chirib olib kelmoq, ko'chirmoq* fe'llaridan "ko'chim" harakat nomi yasalgan. O'zbek tilidagi "ko'chmoq (ko'chirmoq)" fe'llarining quyidagi ma'nolari bor: 1) Yashash joyidan ketmoq, boshqa yashash joyiga o'tmoq; 2) Umuman, o'rni, manzili va sh.k.dan boshqasiga o'tmoq, jilmoq, ketmoq; 3) *ko'chma*. Mavzuni, harakatni, yashash yoki ishslash tarzini o'zgartirmoq, boshqasiga o'tmoq; 4) Yopishgan, birikkan joyidan ajramoq. Nazarimizda mazkur fe'lning ma'nolari har tomonlama izohlanilgan-u, lekin inson biror tomonga ko'chganda yoki narsalarni ko'chriganda hech narsa qoldirmay olib ketishiga ma'nan ishora qilinmagan. Bunga yaqqol misol tariqasida "Falonchilar ko'chib ketishdi" darak gapida yoki "Ko'ch bu yerdan!" undov gaplarida ko'chishga aloqasi bo'lgan odamlarni hech narsalarini qoldirmay ketib qolishi (faqat o'zları emas) tushuniladi, tasavvur qilinadi. Darhaqiqat, biror odamga "Ket!" deyilsa, o'zi ketishiga, "Ko'ch!" deyilsa, uning o'ziga oid bo'lgan (olib kelgan, yonida bo'lgan, o'ziga aloqador bo'lgan) barcha narsa (kiyimlari, ish qurollari, yordamchi vositalari, transporti)larni, birini ham qoldirmasdan olib ketishiga ishora qilinadi. "Ko'chim" atamasining bir yoqliligi shundaki, ko'chirilgan nomning bir "tulkining shaytonligi, ilonning zahri, chaqishi" sifati inobatga olingan bo'ladi. Binobarin, "tulki" deganda, inson hayoliga *yovvoyi, yirtqich, mo'ynali, quyruqi katta va ayyor* hayvon keladi. Nom ko'chishi esa uning faqat *ayyorma'*nosiga asosan kechgan bo'ladi. Ko'chimning muqobili sifatida qaraladigan istiora atamasi arab tilidan olingan bo'lib adabiyotda "predmetlar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslangan ko'chim"<sup>30</sup> deb ataladi. Istiora

<sup>29</sup>Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент: О'zbekiston nashriyoti, 2020. 2-жилд. -Б.477.

<sup>30</sup>Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент: О'zbekiston nashriyoti, 2020. 2-jild. -B.238

so‘zining arab tilida “qarzga olish, muhlatli bo‘lish” kabi leksik ma’nolari ham borki, bular har qanday “ko‘chim”ni mantiqan vaqtincha (bir narsaning nomi ikkinchi narsaga ko‘chayotgan paytda) va nasiya (biror narsa nomini ma’lum muddat o‘tgandan keyin qaytarish sharti bilan berilishi yoki olinishi)ligi tasavvuri chuqurroq mushohada qilinsa yaqqol sezilib turadi. Chunonchi, biror insonga “tulki” nomi ko‘chiriladigan bo‘lsa, u o‘sha inson bilan muloqot (suhbatdoshning ayyorligi, makri ayon bo‘lgan payt) jarayonidagina aytildi. Mazkur so‘z bilan atalgan suhbatdosh manguga tulki bo‘lib qolmaydi, vaqtincha inobatda bo‘ladi. Muloqot o‘tgandan keyin esa bu nom odatda “qaytib olinadi”. Zero, suhbatdosh galdag'i suhbatlarda har safar tulki deb nomlanilavermaydi. Keyin unga o‘z nomi bilan murojaat qilinadi. Agar mazkur odam keyingi hayoti davomida har galgi suhbatda “tulki” deb nomlanaversa, bu so‘z laqabga aylanadi va atoqli otga qo‘shib (*Safar tulki*) aytildi. Milliy adabiyotimizda “ko‘chim”ga variantdoshlik qila olishi mumkin bo‘lgan yana bir stilistik vosita borki, unga *majoz* deyiladi. Izohli lug‘atda bu vosita “so‘z yoki iboraning o‘z ma’nosidan boshqa, ko‘chma ma’noda ishlatilishi va shunday ma’noda ishlatilgan so‘z, ibora, metafora, allegoriya”, deb ta’riflanib, izohlarida chet atamalar (metafora, allegoriya) ga ishora qilinadi. Majoz so‘zining arab tilidagi *tasviriy ifoda* ma’nosи e’tiborga olinadigan bo‘linsa, u orqali “ko‘chim” ning umumiyligi ma’nolari yana bir sema (qo‘shimcha ma’no) *tasvir*, *tasavvurga* orttiriladi. Zero, har bir nomning o‘z surati bo‘lganidek, nom ko‘chganida ham bu surat tasviri ko‘chadi, ko‘chgan narsa surati tasavvurda bo‘ladi, yoxud biror nomning *majoziy ma’nosи* deganda, o‘sha nom ostidagi narsaning hayoldagi tasviri ko‘z oldiga keltiriladi.

Tilimizda “ko‘chim” barobarida uchraydigan ayrim ramz (belgi, ishora), timsol (tasvir, surat), simvol (konkret nomni mavhum narsalarga ko‘chirish), allegoriya (mavhum nomlarni konkret nomga o‘zgartirish), personifikatsiya (shakllantirish), sinekdoxa (bo‘lakni bildiruvchi nom ostida butunni, butunni bildiruvchi nom ostida bo‘lakni tasavvur qilish) kabi stilistik vositalar borki,

ularga mazkur maqolada to‘xtalib o‘tirmaymiz va “ko‘chim”ga sinonim (yaqin ma’nodosh) va variantdosh bo‘lgan, ayrim adabiyotlarda esa ko‘chim turlari hisoblanib kelinayotgan stilistik vositalar metafora va metonimiyalarga bafurjaroq to‘xtalamiz. Mazkur stilistik vositalarxususiyatlari va ularning tahlili borasida to‘xtalinilishidan oldin shuni aytish zarurki, ko‘chim yevropa tillarida “troplar” (bildlicher Ausdruck-tasviriy ibora)deb atalib, metafora, metonimiya uning turlari sifatida o‘rganiladi. “Metafora” termini grekcha “metaphora, metapherein” (qayoqqadir olib bormoq) so‘zidan olingan. Bu termin ma’nosini tahlil qilinayotgan mavzuga monandlashtirib aytilsa, *biror narsaning nomini qayoqqadir olib bormoq, biror narsaning nomi bilan allaqayoqdagi biror narsani nomlamoq* ma’nosida tushunish kerak bo‘ladi. Odatda muloqot nazdida turgan narsalar insoniyat tomonidan nomlanib ulgurilgan va har qaysi o‘z nomiga ega bo‘ladi. Metafora esa narsaning azaliy nomini inkor qilmagan holda uni ikkinchi nom bilan ataydi. Mazkur stilistik vositaning mohiyati shundaki, u bir narsaning nomini ikkinchi bir narsaga ko‘chirishda inobatdagi narsalarning ichki va tashqi o‘xshashligiga asoslanadi. Biroq bunda nazdda tutilayotgan narsaning nomini inobatda bo‘lgan narsaning nomi bilan o‘xshashligi bevosita (aniq) kechmaydi. Masalan, “qulog” (eshitish a’zosi) deganda, uning tashqi o‘xshashligi (qozonning qulog‘i, dutorning qulog‘i, radioning qulog‘i qiyosida odam qulog‘i bevosita solishtirilmaydi, odam qulog‘i solishtirishda bevosita qatnashmaydi, tasavvur bilvosita kechadi. Qozon qulog‘i deganda – *tutish*, dutor qulog‘i deganda – *tovlash*, radio qulog‘i deganda – *burash*) va ichki o‘xshashlik (otizning qulog‘i – mohiyat asosida: qulogqa ovozlar kirib-chiqishi, otizga esa qulog orqali suvning kirib-chiqishi) asosida mushohada qilinadi. Metaforaning adabiyotda ko‘rinishlari o‘zbek tilshunosligida hanuzgacha turlarga bo‘lib o‘rganilmagan. Yevropa tilshunosligida u 4 tur (personifikatsiya, allegoriya, simvol, sinesteza)ga bo‘lib o‘rganiladi. Personifikatsiyaning o‘zbek tilida jonlantirish, shaxslantirish tarjimasi asosida uchrash holatlari bor va bu vosita orqali jonsiz narsalarga jonli narsalarning nomi, xatti-harakati ko‘chadi, masalan, *soat yuradi, soat yurmaydi, soat ikkiga bong urdi, quyosh kulib boqdi*,

*tabiat uxladi*. Allegoriya darslik va izohli lug‘atlarimizda uning yunon tilidan olinganligi, tilimizga “o‘zgacha ifodalash” ma’nosida kirib kelganligi qayd qilinadi va “mavhum tushuncha yoki g‘oyalarni aniq bir obraz vositasi bilan ifodalash; majoz” deb izohlanadi. Masalan, *bo ‘ri* so‘zining yomonlik (yovuzlik), *tulki* so‘zining ayyorlik ifodasi uchun qo‘llanishi.<sup>31</sup> Fikrimizcha, keltirilgan ta’rif va misollarda qarama-qarshilik - yanglishish kechgan. Zero, allegoriyaning vazifasi “mavhum narsalarni konkret nomlash” hisobiga (yuqoridagi ta’rifda aytilganidek) bajariladi. Biroq keltirilgan misollarda konkret narsa “bo‘ri” va “tulki” nomlanib, bu so‘zlar ostida ularning “yomonligi” va “ayyorligi” ko‘zda tutilyapti. Fikrimizcha, buning aksi (yomonlik va ayyorlik mavhum narsa, bo‘ri va tulki esa konkret narsa ekanligi)ni esda tutish lozim. Allegoriya ta’rifiga yevropa tilshunoslari ancha chuqurroq va aniqroq yondoshadilar va uning ostida “mavhum tushuncha (narsa)ni jonlilashtirilgan konkret narsa (tasvir) sifatida tushunilishini”<sup>32</sup> ta’kidlaydilar. Shunda tinchlik (mavhum) oq kabutar (konkret) misolida, qo‘rqaqlig (mavhum) quyon (konkret)qiyosida ifodalaniadi. Simvollarining o‘zbek tiliga grek tilidan kirib kelganligi va uning adabiyotda belgi, ramz, alomat, timsol ma’nolari bilan o‘zlashtirilganligi qayd qilinadi. Qo‘sishma ravishda ta’kidlaniladiki, simvol biror bir g‘oyani o‘zida mujassamlashtirgan badiiy obrazdir.<sup>33</sup> Yevropa tilshunosligida simvol so‘zining grek tilidagi *symbolonva* lotin tilidagi *symbolum* leksik birliklari bilan bog‘liqligi qayd qilinib, ma’nosи “belgi” ekanligi aytiladi. Keyinchalik esa uning ma’nosи “hissiy tasvir”ga kengayganligi qayd qilinadi. Stilistik vosita sifatida uning ostida konkret narsa orqali mavhum narsaning nomlanishi (allegoriyaning aksi) tushuniladi, masalan, chiroq (konkret) so‘zi ostida hayotning mavjudligi va inson hayotining davom etishi (mavhum) anglashiladi. Yoxud uyda chiroq yonsa, u yerda hayot bor degani, yangi kelinchaklarga ota uyidan chiqayotganida yoniqli chiroq berib yuborilishi hayotning davomiylik

<sup>31</sup>Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент: O‘zbekiston nashriyoti, 2020. 1-jild. –B.73

<sup>32</sup>Duden Deutsches Universalwörterbuch.Brockhaus AG, Mannheim. 2007.-S.122

<sup>33</sup>Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент: O‘zbekiston nashriyoti, 2020. 3-jild. –B.505

ramzini, Muhammad (sav) payg‘ambarimizning “ummatlarimning ko‘payishini istayman” degan orzusini amalda ushalayotganini ifodalaydi. Atirgulning muhabbat, uzukning turmush qurbanlik, hassaning suyanchiqlik ma’nolari simvollar uchun xarakterlidir. Bunga yana turli ranglarning (konkret) turfa mavhum ma’nolar, masalan, bayrog‘imiz ranglari kashf etishini ham misol tariqasida keltirish mumkin. Metaforaning to‘rtinchi turi “Sinesteza” deb ataladi va maskur stilistik vosita orqali berilayotgan habar va ma’lumot idroki uchun insonning ikki hissiya’zosi qatnashuvi lozim bo‘ladi. Masalan: *mazali hid*, mazalida til ishtiroki, hidda esa (burun) lozimligi o‘z-o‘zidan tushunarli. Analog misol sifatida sovuq rang, achchiq so‘z, shirin suhbat, xushbo‘y taom misollarini keltirish mumkin.